

“30” Avgust 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi direktor o'rinbosari K.Ximmatkulov bir tomondan va OOO AMIRSHOX STROY QURILISH MCHJ (Keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi D. Axmedov ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 23.08.2022 yildagi 35627-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1.«Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshiriq'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Solpi qishlog'i 34-maktabga borish yo'lini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha smeta xujjatlari ishlab chiqish belgilangan norma va qiodalari amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 1904330 (bir million to'qqiz yuz to'rt ming uch yuz o'ttiz)so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10(o'n)bankkuni ichida shartnomabahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlarni pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ildovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarini ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning roziligisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallanunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugalgandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadiga tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlariga talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi» ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi» ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi» ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabr gacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

“BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo'larga buyurtmachi xizmati” DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB “Ipoteka bank”

L/s: 304521860184017045990118995

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220

Direktor o'rinbosari:

K.Ximmatkulov

“BAJARUVCHI”

Nomi: OOO “AMIRSHOX STROY QURAISH” MCHJ

Manzili: Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Qorateri QFY Jo'raboy q/q

Bank nomi: “KAPITALBANK” AT Samarqand filiali

X/R: 20208000705095640002

MFO: 01061

STIR: 306542864

OKED: 41202

Direktor:

A. Zahidov

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida” gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist G. Anus

Yurist _____

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN) 201122919 MFO 00014 OKED: 97160

Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi.

K. Kabilov

BAYONI

«25» 08 2022 y.

Samarqand shahri
Raislik qiluvchi

K.Ximmatkulov

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinbosari Bosh muhandisi

Maxmudov Sherzod
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abdurayimov Sobir Mamarajabovich
Narmatov Xurshid Umrbayevich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i,
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK direktori K.Ximmatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quyidagi

1. Samarqand shahar M.Shayxzoda MFY Bekobod 1-berk ko'chasi
2. Samarqand shahar Angarolmos MFY ichki yullarini
3. Samarqand shahar Mirishkor MFY Abdurahmon Jomiy ko'chasini
4. Samarqand shahar Charmgari MFY Chilonzor ko'chasini
5. Samarqand shahar Ilmobod MFY 2-proyezd ko'chasini
6. Samarqand shahar Ilmobod MFY Xamro markaziy ko'chasi
7. Samarqand shahar Do'stlik MFY ichki ko'chalar
8. Samarqand tumani Diyor MFY "Samarqand" ko'chasini
9. Bulung'ur tum Saxovat MFY Qum q/q 59 maktabga boruvchi ichki yulni
10. Pasdarg'om tumi Solpi qishlog'i 34-maktabga borish yo'lini
11. Pasdarg'om tumani Zarmon MFY Zarmon qishloq qabristoniga borish yo'li
12. Pasdarg'om tumani Nayman MFY Lolazor ko'chasi
13. Samarqand tumani Diyor MFY "Toshkent" ko'chasi
14. Samarqand tumani Koziarik MFY ichki yo'li
15. Samarqand tumani Obod MFY ichki yo'li
16. Samarqand tumani Yangi obod MFY ichki yo'llarini
17. Samarqand shahar Chordara MFY ichki yo'lini
18. Samarqand shahar Nayman MFY Nayman ichki yo'lini
19. Nisbot MFY Xolmuxammad Nurillayev 1 tor ko'chasini
20. Samarqand sh Charmgari MFY Kaftar proyezd 1 ko'chasini
21. Samarqand shahar Charmgari MFY Charmgaron ko'chasini ichki yulini joriy ta'mirlash (Uchastok №4 ul Kaftar-vorota vodozabara)
22. Samarqand shahar Bobur Mirzo ko'chasini
23. Samarqand shahar Xaymar MFY Guliston ko'chasini
24. Samarqand shahar O'zbekiston ko'chasini
25. Samarqand shahar Nodirabegim ko'chasini
26. Samarqand shahar Olimlar ko'chasini
27. Samarqand shahar Umid ko'chasini
28. Samarqand shahar Erkinlik ko'chasini
29. Samarqand sh Yangi yo'l-Lev Tolstoy va Chexov ko'chalarini
30. Samarqand shahar Mo'lyonipoyon MFY dashtaki bolo ko'chasi 76-maktabga borish ichki yo'lini
31. Samarqand shahar Ko'shbokoli MFY T.Zexniy proyezd 4 ko'chasini
32. Samarqand shahar Afrosiyob MFY Maftuna A'zam ko'chasini
33. Samarqand shahar Sharq Tongi MFY Oybek to'rtinchi yulak ko'chasini
34. Samarqand sh Tazar MFY Sarbadorlar 2-proyezdni ko'chasi
35. Samarqand shahar Konigil MFY Xo'jalar ko'chasini
36. Samarqand shahar Joysuy MFY Sarbon ichki yo'lini
37. Shaxriobod MFY Oybek kuchasi asosiy ko'chasini
38. Qo'shbaqoli MFY 23-maktabga borish yo'lini
39. Charmgari MFY Sayxun ko'chasini ichki yo'lini
40. Termez ko'chasini loyixa smeta xujjatlari ishlab chiqish
41. Andijoniy MFY ichki yo'li
42. Ming Tut MFY Muazamxon ko'chasini
43. Xo'ja G'unjoyish MFY Chingil ichki ko'chalarini
44. Xo'ja G'unjoish MFY Sharkobot ko'chasini
45. Shaxriobod MFY Mironova tupik (Axmedjanov kuch) ichki yo'lini
46. Yangi xayot MFY ichki yo'llarini
47. Mirzo Bedil MFY, Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi 41-47 va 37-ko'p qavatli uylar oldini
48. Muburok MFY Xujum ko'chalarini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarni tayyorlash uchun

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev,)

“Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK tomonidan 2022 yil 11 avgust O'zbekiston Respublikasi
Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 23 avgustdagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakllangan bayonnomalari asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan
“OOO AMIRSHOX STROY QURILISH” MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib






YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomaga bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i. X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 23 avgustdagi elektron bayonnomalari asosan “OOO AMIRSHOX STROY QURILISH” MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olibi “OOO AMIRSHOX STROY QURILISH” MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmurodov Elyor Erkinovich		Korxonada bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abdurayimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Narmatov Xurshid Umrbayevich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i